


Узб. я

611

E.Qodirov

К-58



# Odam anatomiyasi

Узб.2

611


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

K-58

E. QODIROV

УЗ

ODAM  
ANATOMIYASI



Toshkent  
«UNIVERSITET»  
2007

"Odam anatomiysi" darsligi Oliy quv yurtlarining biologiya va biologiya-tuproqshunoslik fakultetlari talabalari uchun yangi dastur asosida yozildi. Darslikda odain a'zolari va tizimlari yoritib berilgan. Endokrin bezlari va ularning gormoniari haqidagi bobি yangi ma'umotlar bilan t Idirildi. Fanni puxta zlashtirish maqsadida lotincha atamalarning zbekcha tarjimalari hamda har bir mavzuga tegishli rasmlar, mikrofotosuratiar ilova qilindi.

Akademik J.H.Hamidov umumiy tahriri ostida

Taqrizchi: biologiya fanlari nomzodi,  
dotscnt A.RJabborov

*O 'zbekiston Respublikasi Oliy va o 'rtta maxsus  
ia 'lim vazirfigi tomonidan oliy o 'quv yurtlarining  
biologiya fakultellari uchun darslik sifatida  
tavsiya etilgan*

## S Z BOSHI

zbekiston taraqqiyotning zi tanlab olgan y lidan sobit qadamlik bilan ildam bormoqda. Mustaqillikning tgan yillari voqealarga boy b lib, milliy ma'naviyatimizni yaratish bilan bo liq bir qator ishlar amalga oshirildi. Bu jarayonda davlatimiz oliy quv yurtlari professor-qituvchilari zimmasiga yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, oliy ta'lim muassasalari talabalar uchun zbek tilida darslik va quv q llanmalarining "yangi avlod"ni yaratishdek muhim va ulu vor vazifalar yuklatilgan.

MaMumki, ilgari yaratilgan "Odam anatomiyasi" darsligi bugunga kelib davr talabiga javob bermay qoldi. Holbuki, keyingi 40-50 yil ichida "Odam anatomiyasi" fani b yicha katta ilmiy-nazariy va amaliy yutuqlar q iga kiritildi. Hozirgi vaqtida odam organizmi a'zo!ari va tizimlarini morfofunksiya tamoyillari asosida tadqiq qilishga va rghanishga katta ahamiyat berilmoqda.

Mazkur "Odam anatomiyasi" darsligi oliy quv yurtlarining biologiya va biologiya-tuproqshunoslik fakultetlari talabalar uchun m Ijallab yozilgam b lib, Kadrler tayyorlash Milliy dasturi va Milliy ta'lim modeli talablari asosida yaratilgan davlat tilidagi birinchi darslik hisoblanadi. Bu darslik birinchi marta nashr etilayotganligi sababli unda ayrim kamchilik va nuqsonlar b lishi ehtimoldan holi emas. Binobarin, mazkur kitob haqidagi z fikr-mulohazalari va istaklarini bildirgan hurmatli mutaxassislarga muallif z minnatdorchiligini bildiradi.

"Odam anatomiyasi" ta'limida rasmlardan foydalanish eng samarali usullardan hisoblanadi. Rasmlar talabalarga materialni chuqurroq zlashtirishlariga va bilimlarini mustahkamlashga k maklashadi. Shuning uchun talabalar q shimcha darslik, q llanma va ataslarda keltirilgan rasmlardan ham foydalanishlari zarur. Shuningdek, amaliyat darslarida talabalarning professor N.A. Ahmedovning 1998 yilda nashr etilgan "Odam anatomiyasi" darsligidan kengroq foydalanishlari ham maqsadga muvofiqdir.

Muallif.

## ODAM ANATOMIYASI FANI VA UNI RGANISH USULLARI

Odam anatomiyasi fani - odam tanasining tuzilishi, rivojlanishi, a'zolari va tizimlarining funksiyalarini bir-biriga bo lab rganadigan fandir. Anatomiya fanining nomi yunoncha "anatome" s zidan olingen b lib, kesaman degan ma'noni bildiradi. Anatomiyada murdani pichoq bilan kesib rganish asosiy usullardan biri hisoblanadi.

Odam anatomiyasi fani biologiya fanining bir qismi b lib, boshqa ba'zi biologik fanlar uchun asos b lib hisoblanadi. Anatomiya fanini zlashtirmay turib bu fanlami zlashirish ancha qiyin b ladi. Bularga: antropologiya, umurtqalilar zoologiyasi, odam va hayvon fiziologiyasi, gistoligiya, individual rivojlanish biologiyasi va qiyosiy anatomiya fanlari kiradi. Bularidan odam va hayvon fiziologiyasi, sitologiya, gistoligiya va individual rivojlanish biologiyasi fanlari bir vaqtlar odam anatomiyasi fanining bir qismi deb hisoblab kelingan. S ngi vaqtarda bu fanlarning rivoj topishi va yangi-yangi ma'lumotlarning kashf etilishi natijasida bularning har biri ziga xos mustaqil fan b lib ajralib chiqqan.

Normal anatomiya fani bir nechta boblardan iborat b lib, har bir bob odam tanasi a'zoIarining ma'lum bir tizimini izohlab beradi. Tizimda a'zo va t qimalar shakli, tuzilishi, tanada joylashgan rinnari bayon etiladi. S ng a'zo!ar va boshqa tizimlarning zaro munosabatlarini, ularning bir-biri bilan bo lanish asoslarini, tizimlarning bir-biri bilan funksional bo lanishini, odam tanasining bir butunligini ta'riflab beradi.

Odam anatomiyasi fani, ayniqsa, biologiya y nalishida umtirtqali hayvonlar anatomiyasi bilan bo liq holda rganib kelingan. Tarixiy taraqqiyot davrlarida ham dastlab mukammal ravishda hayvonlar tanasining anatomiyasi rganilib, s ng odam anatomiyasi ularga taqqoslab rganilgan. Umurtqalilar anatomiyasi bilan odam anatomiyasi rtasida bir-biriga xshashliklar juda k p. Bu xshashliklarni "Solishtirma anatomiya" fani asoslab beradi.

Odam anatomiyasi fani shartli ravishda bir nechta tizimlarga ajratib rganiladi. Bularga quyidagilar kiradi: suyaklar haqidagi ta'limot - osteologiya, b imlar ta'limoti - artrologiya, muskullar ta'limoti - miologiya, ichki a'zolar haqidaga ta'Mimot - splanxnologiya, yurak-qon aylanish va limfa tizimi ta'Mimot - angiologiya, nerv tizimi ta'limoti - nevrologiya, sezgi a'zo!ari haqidagi ta'Iimot - esteziologiya, ichki sekretsiya bezlari haqidaga ta'limot - endokrinologiya nomlari bilan yuritiladi.

Ma'lumki, har bir fan zining taraqqiyoti davrida q lga kiritilgan usullari yordamida rganiladi va rivojlantiriladi. Dastlabki usullar nihoyatda sodda b Igan b Isa, keyinchalik yangi-yangi murakkab usullar paydo b la boshlaydi. Odam anagomiyasini rganishda ham xuddi shunday jarayonlar kuzatilgan.

Dasllabki, qadimiy usullardan biri - bu murdani kesib yorib rganish usuli b lib, bu usul hozirgi vaqtda ham z mohiyatini y qotmay, odam anatomiyasini rganishda asosiy usullardan biri hisoblanib kelmoqda.

Mikroskop paydo b iishi bilan odam a'zolari va tizimlarini mikroskopik va ultramikroskopik tekshirish usuli rivojianib ketdi. Oxirgi vaqtda bunday usullarning soni oshib bormoqda.

Pirogov tomonidan yaratilgan murdani muzlatib, s ng arralab rganish usuli. Bunda tana qismlari qavatma-qavat arralanib, topografiyasi rganildi. Inyeksiya usulida tanadagi b shliqlarga qon tomirlari, bez kanalchalariga rangli kimyoiy moddalar yoki eritilgan parafin yuborib, uni qotirib rganildi. S ngi vaqtarda rentgen usuli keng q llanilmoqda, endoskopiya usullari, sitoximiya-gistoximiya usullari shular jumlasidandir.

Anatomiya fani fundamental fanlar qatoriga kiradi, uni har tomonlama mukammal rganish va bilish har bir biolog va, ayniqsa, tibbiyat sohasidagi mutaxassislarining burchidir.

## ANATOMIYA FANINING QISQACHA TARIXI

Anatomiya tarixiga doir ma'lumotlarning dastlabki izlarini qadimda yashagan xalqlarning tarixidan topish mumkin. Yer osti qazilmalariga oid matumotlarni va tarixiy q lyozmalarni chucherroq rganish natijasida hayvon va odam anatomiyasiga qiziqish qadim zamonalardan boshlanganligining guvohi b lamiz.

Sinchkov ovchilar hayvon tanasidagi eng muhim a'zolarning joylashishini yaxshi bilganlar, Ibtidoiy odamlar anatomiyasi t risidagi tasawurlarni orlarning devorlariga chizilgan rasmlardan bilsa b ladi. Bularda hayvon yuragi uning tanasining qayerida joylashganligi alohida k rsatib tilgan.

Qadimgi Misrda odam anatomiyasi sohasidagi bilimlaming rivojlanishida misrliliklarning odam tanasini m miyolab uzoq vaqt saqlab qolishga intilish ham sabab b lgan. Shu davrlarda m miyolash bilan shu ullanadigan mutaxassislariga murdalarni yorib rganishga ruxsat berilgan. Ularning yozib qoldirgan ma'iumotlaridan tibbiyat mutaxassisiari foydalanganlar. Misrlik tibbiyatshunos A.Smit maMumotiga k ra, odam anatomiyasiga mansub dastlabki maMumotlar eramizdan oldingi XXX asrlarda paydo b la boshlagan.

sha davrda bosh miya va uning vazifasi, yurak, qon tomirlaridagi harakatlar haqidagi ma'lumotlarga ega b lganlar. Smit zining "Tibbiyatshunosning sirli kitobi"da (XIV asr) yurak va yurak tomirlari haqida kop t xtalib tgan.

Qadimgi Xitoyda eramizdan oldingi XI-XII asrlarda yozib qoldirilgan "Tibbiyat qonuni" kitobida yozilishicha, ichki a'zolarning joylashishini, qon tomirlari, nervlari va ularning tana b ylab tarqalishini bilganlar. Kasallarni davolashda nina sanchish usullaridan foydalanganlar. Kitoblardagi rasmlardan ma'lum b lishicha, odam tanasida yuzlab nuqtalar keltirilgan b lib, ularga

tashqaridan nina sanchish usullari biian kasallarni davolashda foydalanganlar. Hozirgi vaqtida bu usuliar keng rivojlangan b lib, nuqtalarning soni mingdan oshib ketgan. Birgina qulqoq suprasining yuzasida ortiq nuqtalar mavjud.

Odam anatomiyasiga doir ma'lumot!arni ma'lum tizimga keltirib asoslash cramizdan oldingi IV-V asriarda qadimgi Gretsiyada boshlanadi.

Gippokrat (e.o. 460-377 yillar) qadimi Gretsiyada anatomiya fanining rivojlanishiga katta hissa q shgan olim, u tibbiyotshunosiar otasi nomini olgan. Odam tanasi tuzilishini har tomonlama chuqur rgangan. U zigacha b lgan ma'lumotlarni, hamda z izlanishlarini yozib qoldirgan. Kitoblarida skelct suyaklaridan kalla suyaklari, umurtqalilar, qovur alar va q I-oyoq suyaklari bilan birga k z, b imlar, muskullar va yirik tomirlar tuzilishi haqida ma'lumotlar mavjud. z izlanishlari va q Iga kiritilgan ma'lumotlarga asoslangan holda "tabiatui bilishga tajriba va tadqiqotlar orqali erishiladi" deb t kidlaydi. Shu bilan birga "odam tanasining tuzilishini rghanish - tibbiyotning bosh negizi" ekanligini asoslab bergen. Aibatta, uning xatolari ham b lgan. U arteriya tomirlarida havo tadi deb hisoblab, bu tomirlarga hozir ham saqianib qolgan arteriya (*aer* - yunoncha - havo, *tereo* - olib boraman) nomini bergen, Nervlarni esapaylar deb hisoblab, not gri tasavvurga ega b Igan.

Aristotel (e.o. 384-322 yillar) Gretsiyada yashab, z davrining atoqli ensikiopidist olimi, boshqa fanlar qatorida tibbiyot fanini ham mukammal bilgan. Hayvonlar anatomiyasini yaxshi rghanib, anatomiyaning rivojlanishiga katta hissa q shgan. Aristotel nervlarni ajrata bilgan, yurakka qonni harakatga keltiruvchi asosiy a'zo deb qarab, uning tuzilishi va ahamiyatini ancha t ri izohlab bergen. Aristotel aorta nomini birinchi b lib kiritgan. Hayvonlar organizmni rghanib, turli t qimalar, jumladan to ay, suyak, yo t qimasi va qonni bir-biridan ajratab izohlab bergen. Aristotel "Hayvonot olamingning tabiiy tarixi" nomli asarida hamma mavjudotlar rivojlanishining izchilligi t risidagi ma'lumofcni oldinga suradi.

Gerafil (e.o. 300 yilda Gretsiyada tu ilgan). Odam anatomiyasini rghanishda murdalarni bevosita yorib, bu haqda yozma ma'lumotiar qoldirgan olimlardan. Anatomiya k p yangiliklar kiritgan. Bosh miyani tuzilishiga ahamiyat berib, uni tafakkur a'zosi deb yozib qoldiradi. U birinchi b lib sezuvchi va harakat nervlarini farqlab bergen. Shu biian birga, k z soqqasi va uning pardalari, 12 barmoqli ichak ustida izlanishlar olib borgan, yurakning tuzilishi va pulsatsiyasini rgangan.

Erazistrat (e.o. 300-350 yillar, Gretsiya). Anatomiya va fiziologiya bilan shu ullangan olim-. Uning fikricha, arteriyalarda havo emas, qon oqadi. U qonning pkalardan yurak chap b lmasiga, s ngra qorinchaga quyilishi, keyin esa aorta va arteriyalar orqali organizmga tarqalishini k rsatib bergen. Yurak va tomirlar haqidagi tasavvurlarga yangiliklar kiritgan.

Ruf (eramizning I asri). Rum olimi, k z nervlarining kesishgan joyini rgangan. Ruf va Klavdiy Galen anatomiya tarixida birinchilardan b ib iinatomiyaning lotincha atamalarini tuzib, uni fanga kiritganlar.

Klavdiy Galen (131-201 yil). Bergamolik olim, tibbiyotshunoslikda z davrining yirik namoyondalaridan hisoblangan. Tibbiyot sohasidagi oldingi inaMumotlarni umumlashtirib uning rivojlanishiga katta hissa q shgan. Orqa va bosh miya nervlarining biriktiruvchi t qimalari, ayrim qon tomirlari va boylamchalarini rgangan. Anatomiya oид hamma ma'lumotlarni hayvonlar lanasida tekshirgan. Shuning uchun ham uning xatolari k p b Igan. Chunki, u dinning fan rivojlanishiga t sqinlik qilishi natijasida odam murdasini yorib

rgana olmagan. Odam anatomiyasini hayvonlardan olgan dalillar asosida ta'riflagan. Galen tananing ayrim suyaklarining shakli va joylashishi, hamda organizm ixtiyori bilan qisqaradigan muskullar faoliyatini rgandi. Muskullarning liamma harakati nervlar orqali sodir b Iadi deb ta'rifladi. Galen qon aylanishini not ri ta'rifiyadi, uning aytishicha, qon jigaridan tana b ylab tarqaladi. Qon lomirlarida havo emas, balki qon oqadi, deb zidan oldin tgan olimlarning not ri fikrlarini t irlaydi. Galen z bilimi bilan katta obr ga ega b Iganligi tufayli, unga hech kim qarshi chiqa olmagan va uni tanqid qila olmagan. U antik davr tibbiyotini oxiriga yctkazgan olim deb hisoblanadi. Galenden s ng tgan XIII asr davomida Galen va Gippokrat z ishlarida hech qanday xatoga y 1 q ymaganlar, degan fikr saqlanib, ularningasarlaridan foydalanib keligan.

rta asrlarda (V-XI) boshqa fanlar qatori anatomiyaning rivojlanishi ham kcskin pasayib ketadi, Bu davr - din zulmi kuchaygan davr edi. Odam murdasini yorib rganish din tomonidan butkul ta'qiqlanganligi tufayli asosan oddin yashab tgan olimlarning yozib qoldirgan ma'lumotlari asosida ish yuritilgan.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037 yillar). rta asrning ulu olimi (Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhur), qomusiy bilim egasi, anatomiya, matematika, falsafa fanlarini chuqur egallagan, jahon madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa q shgan va juda katta ilmiy meros qoldirgan olimlardan hisoblanadi. sha davrlarda rta Osiyoda fan va madaniyat yuksak darajada rivojlangan edi. rta Osiyoning Xuroson va Movarounnahr viloyatlari arab istilochilar zulmidan ozod b iishi tufayli bu yerda fan va madaniyat sohalari tez taraqqiy eta boshladidi. Aynan sha davrlar rta Osiyoda butun dunyoga mashhur b Igan k plab olimlar etishib chiqdi. Shulardan biri - Abu Ali Ibn Sino edi. U 980 yili avgust oyida Buxoro yaqinidagi Afshona qishlo ida rta darajali davlat xizmatchisi oilasida tu ildi.

Buyuk olimning yuzdan ortiq asarlari b lib, ulardan 58 tasi falsafaga, 20 tasi tibbiyotga, 11 tasi astronomiya, kimyo, fizika, botanika va boshqa fanlarga ba ishlangan. Bulardan tashqari, uning mantiq, huquq, san'at nazariyalariga oid asarlari ham b Igan. Bu asarlarning har biri - bir nechta jiddan iborat b Igan. "Tib qonunlari" nomli qomusiy asari 5 jilddan tashkil topgan b lib, ular orqali Ibn Sino ayniqsa tibbiyot sohasida butun dunyoga mashhur hakim va olim sifatida tanildi.

Ibn Sino zining "Tib qonunlari" kitobida tibbiyot sohasidagi barcha ma'lumotlarni umumlashtirdi, ularni z tajribalari va kuzatishlari bilan boyitdi hamda mukammal tizimga asos solib, tibbiyot fani sohasida yangi davr ochdi. Bu asar z davrining mashhur olimlari hisoblangan Gippokrat va Galenlardan s ng tibbiyot fani durdonalari qatoriga q shilgan eng yirik kashfiyot boidi. "Tib qommJari" kitobi tgan 600 y/1 davomida tibbiyot sohasida asosiy q llanma boiib kelgan. Ibn Sinoning "Tib qonunlari" rta asrlarda faqat Sharqdagina emas, balki arb mamlakatlari universitetlarida ham talabalar uchun tibbiyot fanlari b yicha birdan-bir q llanma boiib keldi. Olimning tibbiyotga oid asarlari, ayniqsa "Tib qonunlari", ilmiy tibbiyot fanining s nggi rivojlanishiga ham juda katta ta'sir k rsatdi. U uzoq kelajakdagi tibbiy kashfiyotlarni bashorat qilgan holda yuqumli kasalliklar k zga k rinmaydigan kasal q z atuvchi mikroorganizmlar tomonidan suv va havo orqali tarqatiladi, degan fikrlarni yozib qoldirgan.

Ibn Sino "Tib qonunlari" kitobida odam anatomiyasiga va fiziologiyasiga katta eibir beradi. Jarrohlik va diagnostikaga oid kitobida ham bu masalalarga k p rin ajratgan. Uning fikricha, puls (tomir urishi) kasallikning turi emas, balki kishining yoshi, jinsi, iste'moi qiladigan ovqatining turi, yil fasli, havoning zgarishlariga qarab zgarib turadi. Asarda odam gavdasining tuzilishi, anatomiyasiga mufassal bayon etiladi. Bunda suyaklar, b imlar, paylar, mushaklar, nervlar yaxshi ta'riflangan. Qon tomirlari uruvchi tomirlar (arteriyalar) va tinch tomirlarga (venalar) boiinadi, deydi. Mushaklar haqidagi bobida Ibn Sino birinchi boiib murakkab k z mushaklarini juda aniq va mufassal ta'rifiab beradi.

Kitobning alohida bobo nerv/arni czohlashga ba ishfangan boiib, "miya sezgi va harakatni nervlar orqali boshqa a'zolarga tkazadi", deb k rsatdi. Murakkab tuzilishga ega boigan bosh va orqa miya nervlarini t ri sharhlab beradi. Biror anatomik faktni izohlaganda uning fiziologiyasiga katta ahamiyat beradi.

Ibn Sinoning "Tib qonuni" bir necha asrlar davomida (XVII asrga qadar) dunyoning barcha mamlakatlarda tibbiyot xodimlari uchun qoilanma b lib kelgan. Uning bu qadar katta muvaffaqiyat qozonishiga sabab, kasallikni aniqlash (diagnostika) va davolash usullarining juda aniq, mukammal va shu bilan birga tushunarli bayon etilishidir.

Ibn Sinoning asarlari zining originalligi, fikr va xulosalarining faktlarga (dalillarga) asoslanganligi, ravshanligi bilan ham mashhur. Bu jihatdan "Tib qonuni" alohida rin tutadi va Galen q lyozmalariga nisbatan oldinga q yilgan qadamdir.

Ibn Sinoning "Tib qonuni" asari birinchi marta XII asrda yashagan Gerard tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan. Kitob bosib chiqarish y lga q yilgandan s ng u 30 marta qayta nashr qilingan. Bu asar zbek tilida birinchi marta 1955-1956 yilda Toshkentda chop etildi.

Din tomonidan jiddiy t sqinlikka uchrashiga qaramay, anatomiya XII-XIV asrlarda Yevropada ochila boshlagan universitetlarda rivojlanib boradi, chunki bu universitetlardagi tibbiyot fakultetlariga 1-2 murdani yorib rghanishga ruxsat berilgan edi.

Mondino de Lutsiy (1275-1327) venetsiyalik olim b lib, u ikkita ayol murdasini yorib rghanib, zi yiqqan maMumotlar asosida "Anatomiya darsligi"ni yozib qoldiradi. Bu darslik XIV-XVI asrlarda 25 marta qaytadan nashr etilgan.

Leonardo da Vinchi (1452-1519) buyuk rassom, matematik va muhandis - 30 ta murdani yorib rgandi. rghanish jarayonida odam anatomiyasiga oid 800 laga yaqin nihoyatda aniq rasmlar chizib qoldirdi. Uning chizgan anatomiyaga oid rasmlari bizning zamonamizda ham z ahamiyatini y qotmagan. U Galenning anatomiyaga oid nazariyalari va k rsatmalari asossizligini isbotlab, o'z zamonasi anatomiyasi rivojiga asos soldi.

Andrey Vezaliy (J 514-1564). Belgiyalik olim, tasviriy anatomiyaning asoschilaridan. Murdani bevosita yorib rgandi. Odam tanasi qanday tuzilgan boMsA, shunday izohlab berdi. z fikr va dalillarini odam tanasiga qarab chizilgan rasmlar bilan k rgazmali bayon qildi. Vezaliy (1543 yil) anatomiya b yicha t plagan barcha maMumotlarini olamga mashhur yetti kitobdan iborat "Odam anatomiyasining tuzilishi" asarida yozib qoldiradi. Galenning qon harakatiga doir asarlarini keskin qoraladi. Hayvonlar anatomiyasi dalillarini odam anatomiyasiga k chirish natijasida yoM q yilgan xato va kamchiliklarni katta mehnat evaziga toMa ochib tashladi. Andrey Vezaliy faoliyat k rsatgan Paduan universiteti sha zamonda yetishib chiqqan talentli olimlari bilan olamga mashhur edi.

Vilyam Garvey (1578-1657). Angliya olimi, buyuk anatom va fiziolog. Paduan universitetidan yetishib chiqqan. Qon aylanish tizimini raganishga ulkan hissa q shgan. Anatomiya, ayniqsa qon aylanishi tizimiga doir ishlarini umumlashtirib, 1628 yilda "Hayvonlarda yurak va qon harakati t risida anatomik tckshirishlar" nomli ilmiy asarini yozdi. Unda birinchi boMib kichik va katta qon aylanish doirasining anatomiysi va fiziologiyasini tavsiflab berdi. Qonni arteriya tomirlaridan vena tomirlariga oMkazib beruvchi kapillar tomirlar t risida asosli maMumotlar boMmasligiga qaramay, qon arteriyadan venaga k zga k rinmaydigan romirchalar orqali oMadi, degan taxminiy *fikrni* ol a surdi. Garveyning bu taxmini Marchello Malpigiy (1628-1690 y.) sha zamonda ixtiro qilingan mikroskop (birinchi mikroskop 1665 yilda R. Guk tomonidan yaratilgan) yordamida kapillar tomirlar tuzilishini mukammal

rganib, ularning arteriya bilan vena tomirlari oMtasidagi anastomozlar sifatidagi rolini ilmiy asoslab berdi. Malpigiy faqat tomirlar mikroskopiyasi bilan chegaralanib qolmay, boshqa a'zolarning mikroskopik anatomiyasini ham oMgandi. Birinchi boMib hayvonlar tcrisi, talogM, buyragi va boshqa a'zolarning mikroskopik tuzilishini oMgandi.

Miguel Scrvet (1509-1553). Ispaniyalik olim. U birinchilardan b Iib yurakning ng qorinchasidan boshlanib, chap b hnachasigacha b lgan kichik qon aylanish doirasini, ya'ni qon pkadan juda mayda tarmoqlangan pka arteriyasi va vena tomirlari orqali tadi, degan taxminni yozib qoldirgan. U "Xristianlikning tiklanishi" nomli kitobi uchun idealizm dushmani sifatida 1553 yili sha kitobi bilan olovda kuydirilgan. Shuni ham aytib tish joizki, Servetdan ancha oldin kichik qon aylanish tizimining pka orqali tishi t risidaga fikri XIII asrda birinchi b lib Damashqlik arab olimi Ibn an Nafis aytib tgan edi.

Keyinchalik olimlar odam anatomiysi bilan bir qatorda uning a'zo'lari tuzilishi va ularning vazifalarini rghanishga ham katta ahamiyat bera boshladilar.

Gabriel Fallopiy (1523-1562). Ispaniyalik olim, jinsiy a'zolar bilan mukammal shu ullanib, "Anatomik tuzilishlar" nomli kitobida bachadon nayini z nomi bilan (fallopiy nayi deb) yozib qoldirdi.

B. Yevstaxiy (1510-1574) - tishlar, ayiruv va eshituv a'zo!arini rghanib, birinchi b lib halqum bilan cshituv y Iini rgandi va halqum bilan rta qulog rtasidagi bu y Ini znomi bilan (Yevstaxiy nayi deb) atagan.

M.I. Shein (1712-1762) - birinchi b Iib anatomiyada q llaniladigan rus tilidagi atamalarni ishlab chiqdi. 1744 yili rus tilidagi atamalarni bosmadan chiqardi. 1757 yili esa birinchi b lib rus tilida anatomiya darsligini yaratdi.

A.M. Shumlanskiy (1748-1796) - "Buyrakning tuzilishi" nomli ilmiy ishida buyrak ichki tuzilishini mukammal bayon etib berdi.

K.F. Volf (1733-1793) - M.V. Lomonosov tomonidan tashkil etilgan Rossiya akademiyasining a'zosi, "Yaratilish nazariyasi" nomli ilmiy asarida epigenez nazariyasini ilmiy asoslab beradi. 1759 yil unga "turlar doimiyligi" nazariyasiga birinchi hujum qilgan olim, deb yuksak baho bergenlar.

P. Purkine (1787-1869) - yurak muskullari anatomiysi va yurakning mikroskopik tuzilishini rgandi. U yurakning ta'sirlarni tkazish xususiyatiga ega tolalarini aniqladi va bu tolalarni z nomi bilan ("Purkine tolalari") atadi.

K.M. Ber (1792-1876) - birinchi b Iib tuxum hujayralarining murakkab tuzilishini tasvirlab berdi va uru Iangan tuxum hujayrasining rivojlanishini rgandi. Ber organizmning k payishi ustida olib borgan ishlari bilan hozirgi zamon embriologiyasiga asos soldi.

T. Shvann (1810-1882) - "Hayvon va simlik tanasining tuzilishi va sishidagi zaro xshashliklarni mikroskopda tekshirish" nomli asar bilan dunyoga mashhur b idi. U shu sohadagi zigacha b lgan maMumotlarni umumlashtirib, "Hujayranazariyясини" yaratdi.

N.I. Pirogov (1810-1882) - z davrining buyuk olimi va jarrohi. Anatomiya murdalarni rghanishda yangi usulni, ya'ni muzlatib, uni har tomonlama aralash usulini q llab, ichki a'zo!arning bir-biriga nisbatan joylashishini rgandi va Topografik anatomiya asos soldi. Pirogov organizmdagi muskullar, yirik qon tomirlar, ayniqsa fatsiyalarni mukammal rgandi.

V.A. Bels (1834-1894) - bosh miya p stlo ining makro va mikroskopik tuzilishini rganib, "gigant hujayra" larni kashf etdi. Keyinchalik bu hujayralar Bets hujayralar nomini oldi. U buyrak usti bezi ma iz qismining morfofunksiyasini ham rgangan.

V.N. Shevkunenko (1872-1952) - topografik anatomiya maktabini yaratgan. Odam tanasi a'zolarining zgaruvchanligiga oid masalalar bilan shu ullangan.

V.N. Tonkov (1872-1954) Topografik anatomiya va jarrohlik xirurgiyasi" asari bilan mashhur, eksperimental anatomiya rivojiga katta hissa q shgan olim. Hayvonlar qon tomirlarini mukammal rgandi. Tonkov maktabi qon aylanishning aylanma (kollateral) y ligda doir masalalarni t Ia-t kis rgandi. Uning odam anatomiyasini b yicha yaratgan darsligi eng yaxshi yozilgan darslik hisoblanib, besh marta nashr qilingan.

V.P. Vorobyov (1876-1937) - anatomiyada makro va mikroskopik izlanishlarni y lga q ygan, odam jasadini balzamlashni amalga oshirgan, besh tomlik odam anatomiyasini atlasini yaratgan.

X.Z. Zohidov (1912-1978) - anatom olim, tibbiyot fanlari doktori, professor. Toshkent tibbiyot oliy quv yurtida faoliyat k rsatgan, "Anatomiya kafedras" ning mudiri. Ilmiy izlanishlarining asosiy y nalishi - markaziy nerv tizimi (MNT) tuzilishini rgangan. 1964-1968 yillarda tibbiyot oliy quv yurtlari uchun zbek tilida ilk bor yaratilgan ikki jiddlik anatomiya darsligi mualliflaridan biri. 1964 yilda uning A.A. Asqarov bilan birgalikda yozgan lotincha- zbekcha-ruscha atamalar lu ati nashrdan chiqqdi. 1970 yili esa uning boshqa olimlar bilan hamkorlikda yozgan "Odam anatomiysi" darsligi nashr etildi.

S.A. Dolimov (1915-1992) - topograf-anatom, jarroh, tibbiyot fanlari doktori, professor, me'da xronik yarasining modeli va morfologiyasi ustida Uidqiqot ishlari olib borgan. Me'da morfofunksiyasi va uning patologiyasi y nalishlarida k rsatmalar yozib qoldirgan.

K.A. Zufarov (1925-2002) - zbekistonda xizmat k rsatgan fan arbobi, akademik. Uning rahbarligida Toshkent Davlat tibbiyot institutida birinchi b lib elektron mikroskopik aftoradiografiya hamda zamonaviy sitoximiya usullari y lga q yilgan. K.A.Zufarov tomonidan yaratilgan ilmiy maktabda buyrak, me'da-ichak tizimining sitologiyasi, sitoximiysi va elektron mikroskopiyasi asosiy rinni egallaydi. Uning k plab izlanishlari "Buyrak usti bezi" (1966), "Hazm a'zolari tizimining elektron mikroskopiyasi atlasi" (1969), "Buyrak elektron mikroskotgayasi atlasi" (1969), "Muvofiqlanish (moslashish) jarayonining hozirgi zamon muammolari" (1970), "A'zolar va t qimalar elektron mikroskopiyasi" (P.I. Toshx jayev, E.K. Shishova va J.K.Hamidovlar bilan birgalikda, 1971), "Neyro endokrin tizimi" (J.K. Xamidov bilan birgalikda, 1971) kabi ilmiy asarlarda z aksini topgan. Bu asarlardan k plab soha mutaxassislari, talabalar muhim q llanma sifatida foydalani kelmoqdalar.

J.K. Xamidov - akademik, neyronlarning sishi, rivojlanishi va tabaqalanishi sohasida z ilmiy mifiktabini yaratgan olim. Senggi yillarda u raxbarlik qilayotgan jamoa so Iom hayvon genini uru langan tuxum hujayrasiga mikroinycksiya y li bilan tkazish b yicha olib borayotgan izlanishlari kelajakda irsiy kasalliklarni bartaraf qilish hamda zotli mollami yaratish kabi irsiy omillar hamda hujayra injeneriyasiga oid biotexnologiya muammolarini yechib beradi.

N.K. Axmedov - anatom, tibbiyot fanlari doktori, professor, zbekistonda xizmat k rsatgan fan arbobi. Toshkentdagi 2-tibbiyot institutida faoliyat k rsatadi. Ilmiy izlanishlari oyoq-q Ilarni kesib tashlashda yirik nerv stvollarining uchini maxsus ishlovlaniishi, perifrik nerv tizimiga rentgen nurlari ta'sir ettirilganda yoshga qarab r y beradigan degeneratsiya va regeneratsiya jarayonlariga ba ishlangan.

zbek tilidagi ikki tomlik "Odam anatomiyasi" darsligi mualliflaridan biri. zbekistonda birinchi b Iib zbek tilida "Odam anatomiyasi" atlasini yaratdi (1998).

N.X. Shomirzayev - tibbiyot fanlari doktori, professor, topografik anatomiya va operativ xirurgiya sohasida ishlagan. Ilmiy ishlari nafas va yurak tomir tizimlarida kompensator moslanish jarayonlarining hujayraviy mexanizmlarini r ganishga ba ishlangan.

### *Takrorlash uchun savollar*

1. *Odam anatomiyasi farixiga asos b Igan boshlah ich ma 'lumotlar.*
2. *Misr anatomlarining anatomiyaga qo 'shgan hissalari.*
3. *Gippokrat ta 'limotlari.*
4. *Aristotelning anatomiyaga qo 'shgan hissasi.*
5. *Abu Ali Ibn Sino anatomiyasi.*
6. A. Vezaliy, V. Garvey va M. Malpigiylaming anatomiyaga oid asosiy ishlari.
7. *Anatomiya rivojiga hissa qo 'shgan Rossiya olimlari.*
8. *Anatomiyan O 'zbekistonda rivojlantirgan olimlar.*
9. *Anatomiyada qo 'llaniladigan usidlar.*

## ODAM TANASINING TUZILISHI

### Hujayra va t qima

Hujayra - tirik organizm tuzilish asoslarini, yashash jarayonlarini hamda irsiy belgilarini zida mujassamlashtirgan tuzilmadir. Binobarin, odam yoki hayvonlar bir butun organizm holida hujayralar va hujayralararo tuzilmalar yi indisidan tarkib topgan. Fiziologik holatiga k ra hujayralar shakli va tarkibi har xilligi bilan bir-biridan farq qiladi, hujayralarning vazifasi ularning shaklini

belgilaydi. Tarixiy biologik rivojlanish nuqtayi nazaridan qaraydigan b'lsak, hayot yer yuzidasi jonsiz materianing jonli materiyaga aylanishidan, aniqroq qilib aytganda, hujayralar paydo b'lishidan kelib chiqqan. Masalan, dastlab yumaloq shakldagi eng sodda tanachalar paydo b'Igan. Shu bilan ular yashashi uchun zarur moddalarini tashqi muhitdan zlashtirib, z'hayot faoliyatida hosil b'Igan chiqjindi moddalarini ajratib turgan. Bunday sodda organizmlarning yashash muhitni asta-sekin zgarishi va murakkablashishi natijasida ular organizmida moddalar almashinuvি jarayonlari ham zgarib, tabaqalashib borgan, bu esa z'navbatida organizmlar tuzilishining ham qisman zgarishiga olib kelgan, ya'ni organizmda shakli va mohiyati jihatidan dastlabki tanachalardan farq qiluvchi yangi tuzilmalar paydo b'la boshlagan. Yillar tishi bilan tarixiy biologik rivojlanish davom etib, atrof-muhit zgarishi va yashash sharoitining yana ham murakkablashishi oqibatida murakkab organizmlar paydo b'la boshlagan. Bu esa, albatta, ular tanasidagi oqsillar tuzilishiga ham tarkibiy zgarishlar kiritgan, natijada uiar turli vazifalarni bajarishga ham moslashib borgan.

MaMumki, hozirgi fan nuqtayi nazaridan qaraganda, tirik organizmlarning rivojlanishida va shakllanishida dezoksiri-bonusklein (DNK) va ribonuklein (RNK) kislotalari asosiy vazifani bajaradi. Ular organizm uchun zarur b'Igan oqsil moddalarini sintezlaydi va zida genetik ma'lumotlarni saqlab keladi. Bunday xususiyat k'p hujayrali organizmlarda ham uchraydi. Bir hujayrali organizmlar tuzilishi va yashash xususiyatlariga k'ra k'p hujayrali organizmlarga xshasa-da, lekin ziga xos yashash sharoiti (suv, quruqlik) ularning tuzilish va vazifalarini tubdan zgartirib yuborgan. Chunonchi, bakteriyalar, k'k-yashil suv tlari, aktinomitsetlar shakllangan yadro va xromosomalari b'Imasligi bilan farq qiladi. Ularning genetik axborot apparatlari qobiq bilan ralmagan ipchalardan tashkil topgan. Viruslarda esa hatto moddar almashinuvি uchun zarur b'Igan fermentlar ham b'Imaydi. Shu sababli ular faqat biror hujayra ichiga kirib olganidan kcyingina k'payadi va sadi. Odam va hayvonlar a'zosi hamda t'qimalarini tashkil qiluvchi hujayra va hujayralararo moddalar hamda tuzilmalar z'vazifasiga k'ra har xil shaklga va murakkab tarkibiy tuzilishga ega. Keyinchalik, uzoq evolusion rivojlanish jarayonida muhit sharoilining zgarish natijasida k'p hujayrali organizmlar hujayrasida vazifa taqsimoti belgilari paydo b'Ia boshlaydi. Har xil vazifalarni bajaruvchi hujayralarning ichki tuzilishida ham murakkab kimyoviy va struktura zgarishlari sodir b'ladi. Hujaralardagi xilma-xil vazifalarni ular ichida joylashgan turli xil organoidlar (yadrodagi xromosomalar, sitoplazmadagi ribosomalar, mitokondriy, endoplazmatik t'r, Golji majmuyi, lizosomalar, hujayra markazi) bajaradi. Bundan tashqari, hujayralarda ularning shaklini la'minlab turuvchi hujayra tuzilmalari uchraydi. Ular mikronaychalar, mikrofibrillalar va har xil kiritmalardan iborat. Hujayraning asosiy kimyoviy

tarkibiy qismlariga esa oqsillar bilan fermentlar kiradi, ular faqat hujayra tarkibida b lmay, balki uning atrofidagi suyuq modda tarkibida ham uchraydi. Lekin aslida suyuqiikdagi moddani ham asosan hujayralar sintezlaydi.

simliklar hujayrasining hayvonlar hujayrasidan farqi shundaki, simliklar hujayrasi plazmatik membrananing ustı qattiq qobiq bilan qoplangan b ladi. Kobiq asosan polisaxaridlar, ya'ni selJuloza, pektin moddalar va gemisellulozadan, zamburu lar va ayrim suv tlari xitindan tashkil topgan. Qobiqda juda k p teshikchalar b lib, ular orqaii moddalar almashinuvি sodir boiadi. Tabaqalangan simliklar hujayrasida, odatda, bir nechta yoki bitta markaziy vakuola, maxsus organidlardan plastidalar, leykoplastlar (kraxmal) t planadi, xloroplastlar (xlorofilga boy, fotosintezni amalga oshiruvchi karotinoidlar guruhiga oid pigmentlar), tarqoq holda Golji majmuyi uchraydi.

Hujayralarning ziga xos eng asosiy xususiyatlaridan biri - zidan tiklanishi, ya'ni k payishidir. Buni mitoz yoii bilan k payish jarayonida yaqqol k rish mumkin. K payish xususiyati faqat toia tabaqalangan nerv hujayrasida boimaydi. Shunga k ra, tabaqalangan nerv hujayrasi organizm umrining oxirigacha k paymay z vazifasini bajarib boradi. Lekin uning yadroli boiinish xususiyatini y qotmaydi. Ayrim sharoitda yadro b linishi mumkin. Ayrim hujayralarda toia mitoz boiinish boimaydi, natajada yadro boiinib, sitoplazma boiinmaydi. Bunda bir yoki k p yadroli hujayra hosil boiadi. Hujayralardagi doimiy jarayonlarning boshqarilshida har xil metabolitlar, fermentlar va ionlar ishtirok etadi. Ular ishtirokida hujayralar xilma xil vazifalarni bajaradi. Hujayralarning fiziologik holatiga boshqa a'zo hujayralarining mahsuloti ham ta'sir k rsatishi mumkin. Masalan, ichki sekretsiya bezlarining gormonlari boshqa a'zo!ari fiziologiyasini boshqarib turadi.

Xulosa qilib aytganda, organizmnning bir butun holda yashashi hujayra faoliyatining bir-biriga munosabatiga va tur unligiga bo liqdir.

### Hujayianing tuzilishi

Birgina hujayraning tuzilishi va vazifasida organizmdagi barcha hujayralar uchun xos b lgan umumiyl xshashliklar mavjud boisa-da, amalda ular faqat muayyan vazifani bajarishga ixtisoslashgan. Shunga k ra, hujayralarning shakli va tarkibi zgarib turadi. Masalan, qoplovchi epitely hujayralari yassi, kubsimon, silindrsimon shaklda b Jsa, qisqarish vazifasini bajaradigan mushak hujayralari duksimon hujayralardan yoki silindrsimon tolachalardan tashkil toigan. Mezenxima va retikula hujayralari esa simtali boiib, shu simtalari orqali bir-biri bilan tutashib turadi. Nerv hujayralari ta'sirni uzatishga moslashgan boiib, k p simtali tuzilishga ega. Eritrotsitlar ovalsimon, tuxum hujayralar esa yumaloq boiadi.

Hujayra tashqi tomondan uni rab turgan qobiq, ya'ni membranadan va uning ichida joylashgan protoplazmadan tashkii topgan. Protoplazma deganda, uning ichidagi hamma qismlari, ya'ni sitopiazma, yadro va qobiq tushuniadi. Sitoplazma qismida gialoplazma, organellalar va hujayra kiritmalarini b ladi. Yadro asosan xromatin, yadrocha va kariolimfadan tashkil topgan. Sitoplazmadagi organoidlarga muayyan vazifani bajarishga ixtisoslashgan hujayra markazi, mitoxondriyalar (xromosomalar), tur simon apparat - endoplazmatik t r (Golji majmuyi) kiradi. Hujayra kiritmalariga oqsillar, yo tomchilari, pigment hujayralari, sekretlar va boshqalar kiradi. Hujayra sitoplazmasi tashqi tomondan uch qavatdan tashkil topgan qobiq, ya'ni plazmolemma bilan ralgan. Tashqi va ichki qobiqlari oqsil molekulalaridan tashkil topgan b lsa, ita qobi i esa ikki qavatni tashkil etuvchi lipid molekulasi tashkil etadi. Ayrim hujayralarda plazmolemmadan tashkil topgan ayrim tuzilmalar (mikrovorsinkalar), desmasomalar va h.k. hosii boishi mumkin (1-rasm).

Sitoplazma asosan yarim suyuq konsistensiyadagi mayda donachalardan tashkil topgan b lib, uning ichida yadro va organellalardan tashqari hujayra modda almashinuvida (metabolizmida) ishtirot etuvchi moddalar uchraydi. Bularga oqsillar, yo lar, uglevodlar, anorganik moddalar, suv, lipidlar, nuklein kislotalar kiradi. Har bir quritilgan hujayra tarkibida ita hisobda 50-80 % oqsil, 1 -5 % uglevodlar, 5-9 % yo , 2-3 % lipidlar, quritilmagan hujayrada 75-85 % suv boiadi.

Oqsillar - aminokislotalardan tashkil topgan molekulali organik moddalardir. Tarkibida zgarmas nisbatda azot, uglerod, vodorod, kislorod, deyarli zgarmas nisbatda oltingugurt va ba'zan fosfor uchraydi. Oqsillar hujayra tarkibida protein yoki sut tarkibidagi oddiy albumin hamda qon zardobidagi globulin shaklida uchrashi mumkin. Oddiy oqsillarga ayrim tayanch va mexanik vazifalarni bajaruvchi t qimalarda uchraydigan, ularning tuzilishida asosiy material b lib xizmat qiluvchi kollagen, xondrin, keratin oqsillari kiradi. Oqsillar hujayralarda murakkab, ya'ni oqsil b Imagan moddalar bilan birikkan holda ham uchraydi. Bunday murakkab oqsillarga yadro tarkibida uchraydigan proteinning nuklein kislotosi bilan birikkan nukleoprotein oqsili, Golji majmuyining mitoxondriysida uchraydigan proteinlarning lipidlar bilan birikmasi b lish lipoproteidlari, ayrim bezlarining sekret mahsulotida uchraydigan proteinning uglevodlar bilan birikmasini hosil qiluvchi glukoproteidlari kiradi. Tarkibida temir b ligan gemoglobin va mushaklarda uchraydigan mioglobinlar ham shular jumlasiga kiradi. Sitoplazma tarkibida oqsillar parchalanishidan hosil b ladigan va yangi oqsillar sintez b lishida ishtirot etadigan aminokislotalar ham uchraydi.

Uglevodlar organik birikmalar b lib, vodorod va kislorod bo lanishidan hosil b ladi. Ular, odatda, organizmda oddiy va murakkab shaklida uchraydi. Oddiy uglevodlarga (monosaxaridlarga) glukoza kiradi. Bir nechta oddiy

uglevodlarning birikishidan murakkab uglevodlar (polisaxaridlar) hosil b Iadi. Bularga hujayralardagi glikogen va simlik hujayralarda kraxmalni misol qilib keltirish mumkin. Uglevodlar fermentlar ta'sirida parchalanib, organizm uchun zarur b Igan energiya hosil qiladi. Murakkab uglevodlarga yana biriktiruvchi t qima va bezlarning sekreti, ya'ni mahsuloti tarkibida uchraydigan mukopolisaxaridlar ham kiradi. Mukopolisaxaridlar hayvon va odam t qimalarida k plab uchraydi Asosan ikki xil kislotali va neytral b Iadi. Hayvon t qimalarida k proq kislotali mukopoisisaxaridlar mavjud. Ularga gialuron kisiota, xondroitin, sulfat kislota va heparin kiradi.

Yo lar va lipoidlar. Yo kislotalar bilan glitserining birikishidan neytral yo lar, murakkabroq tuzilganlardan esa erish xususiyatiga k ra yo larga yaqin



1 -rasm Hujayraning elektron mikroskopda k'rimishi (sxema)  
*1-hujayra membranasi; 2-sitoplazma; endoplazmatik to'r;*  
*4-Golji kompleksi; 5-sentriola; 6-mitoxondriy; 7-yadro; 8-yadrocha;.*  
*9-yadro shirasi; 10-yadroqobi i; 11-lizosoma; 12-pinositoz pufakcha.*

turadigan lipoidlar hosil b Iadi. Lipoidlar yo larni erituvchi moddalarda, ya'ni spirt, efir, atseton va benzolda yaxshi eriydi.

Yo lar tuzilishi va uchraydigan joyiga k ra turlicha b ladi. Hujayra protoplazmasida ular yirik-mayda tomchilar shakiida uchraydi va energetik oziq zaxirasi vazifasini bajaradi. Lipoidlar protoplazma va unda joylashgan organellalarning qobi ini tashkil qiluvchi membranalar tuzilishining asosini tashkil etadi. K pincha ular oqsillar bilan birikkan holda uchraydi. Ularga hujayra asosini tashkil qiluvchi iipoproteidlar kiradi. Organizm kasallanganda ana shu hujayra lipoidlari parchalanib, ulardan yo tomchilari ajralib chiqadi.

Anorganik moddalar. MaMumki, t qima hujayralari tarkibida har xil miqdorda suv va mineral tuzlar b ladi. Hujayralarda uchraydigan suv erkin va bo langan holatda b ladi. Moddalar almashinuvi jarayonida, ya'ni moddalarning erishida, asosan erkin holdagi suv ishtirok etadi. Bo langan holda uchraydigan suv oqsil molekulialari bilan birikib, hujayralar tuzilishini saqlab turadi va bundan tashqari, suv hujayrada sodir b Iadigan kimyoviy va biokimyoviy reaksiyalarda ishtirok etadi. Hujayralarda, suvdan tashqari, anorganik moddalar mineral tuzlar holida yoki oqsillar, uglevodlar va lipoidlar bilan birikkan holda uchraydi. Uiar hujayralardagi kislota-ishqoriy muvozanatni saqlab turadi, osmotik bosimni, mitsellalarda adsorbsiya qilinuvchi tuzlar ionlarini tartibga solib turadi. Anorganik moddalar, odatda, chin yoki kolloid critmalar holida b ladi. Kolloid holda ular organik birikmalar bilan bo langan b ladi.

Organik moddalar bilan birga uchraydigan elementlarga quyidagilarni kiritish mumkin: ATF nuklein kislotalar tarkibidagi fosfor, gemoglobin tarkibidagi temir, xlorofil tarkibidagi magniy va h.k.

Nukleoproteidlar nuklein kislotalarning oqsillar bilan birikishidan hosil b Igan murakkab kompleks b lib, protoplazmada hosil b ladigan murakkab kimyoviy reaksiyalardan biri - oqsillar metabolizmini boshqaradi. Nukleoproteidlar tarkibiga kiruvchi nuklein kislotalarning tabiatiga qarab ikki xil b Iadi. Birinchisi - dezoksinukleoproteidlar (DNP), ikkinchisi - ribonukleoproteidlar (RNP). DNP barcha hujayralar yadrosida, ya'ni ularning asosiy massasi b Igan xromatinda, mitoxondriyda va spermatozoidning bosh qismida uchraydi. DNP tarkibini tashkil etuvchi oqsillarga gistonlar va protaminlar kiradi. RNP dan esa ribosomalar, viruslar, informosomalar tashkil (opgan b ladi.

Yod - qalqonsimon bez gormoni tiroksin va triyodtironin tarkibida uchraydi. Kobalt - V vitaminda uchraydi. Hujayrada mineral tuzlar yetishmasligi undagi barcha fizik va kimyoviy jarayonlar buzilishiga sabab b ladi. Natijada turli kasalliklar kelib chiqadi.

Nuklein kislotalar murakkab organik birikmalar b lib, tarkibida fosfat kislota b Iishi tufayli ular kislotali xarakterga ega. Nukleoproteidlarning tabiatiga k ra, barcha tabiiy nuklein kislotalar bir-biridan tubdan farq qiluvchi ikki xilga: dezoksiribonuklein kislota (DNK) va ribonuklein kislota (RNK) ga b Iinadi. D NK tarkibida pirimidin asoslari - timin sitozin, hamda purin asoslari adenin va guanin uchraydi. D NK molekulasida dezoksiriboza uglevodi molekulasidagi kislrorod RNK dagiga nisbatan bir atom kamdir. RNK ga fosfat kislotadan tashqari, pentoza guruhiga mansub riboza uglevodi, siozin va uratsil deb ataluvchi pirimidin asoslari, hamda adenin va guanin nomi bilan yuritiladigan purin asoslari kabi azotli birikmalar kiradi. D NK faqat yadroda lopilgan b lsa, RNK yadrocha va ayniqsa ergastopiazmada k p uchraydi.

Nuklein kislotalarning asosiy biologik vazifasi -biologik y 1 bilan oqsil sintezlash va sintezlangan oqsillarning ziga xos tuzilishini belgilashdan iborat. Jamiki tirik mayjudotning tuzilishidagi xiima-xillik aynan shunga bo liqdir.

### Hujayra morfologiyasi

Odam bilan hayvonlarning organ va t qimalarini tashkii qiluvchi hujayralarda umumiy xshashlik b lishiga qaramay, ular shakli, lulzilishi, kimyoviy tarkibi va moddalar almashinuvি jarayoni bilan bir-biridan farq qiladi. Yuqorida qayd qilib tilganidek, har bir hujayraning fiziologik holati ularning morfologiyasini belgilaydi. Masalan, nerv, muskul hujayralarini k raylik. Ularhing yirik-maydaligi va shakli har xil b Iishiga qaramay, barcha tirik organizmlar hujayrasining ichki tuzilishida bir-biriga xshashlik bor. Har bir hujayra bir butun murakkab fiziologik xususiyatga ega tuzilma b lib, ularda organizm uchun zarur b Igan barcha hayotiy jarayonlar kechadi. Masalan, deyarli hamma hujayralarga xos b Igan moddalar almashinuvি, energiya ajratish, ta'sirchanlik, sish, tiklanish va h.k. hujayralarning morfologak tuzilishiga k ra tashqi tomonidan rab turuvchi membrana, sitoplazma va yadro kabi tarkibiy qismlardan tashkil topganligini k ramiz. Har bir hujayrada ana shu tarkibiy qisrnlar mayjud b Igandagina uning hayot kechirishi ta'minlanishi mumkin.

Tashqi mcmbrananing tuzilishi. Barcha organ va t qimalar hujayrasining sitoplazmasini tashqi muhitdan uch qavatlari tashqi qobiq ajralib turadi. Bunga sitolemma yoki plazmolemma ham deyiladi. Uning rtacha qalinligi 7,5 nm. ga teng b lib, yoru lik mikroskopida k rinmaydi. Uning tuzilishini rganish uchun elektron mikroskopdan foydalaniladi. Qobiqning ikki chet qavatlari oqsildan tashkil topgan b lib, rta qavati yo simon moddadan iborat. Membranasida mayda teshikchalar b lib, ular orqali kerakli moddalar hujayra ichiga tib, moddalar almashinuvি natijasida hosil b Igan chiqindi moddalar tashqariga chiqadi. Membranalar fotositoz va pinositoz qilish xususiyatiga ega zarrachalarni hamda tarkibida har xil suyuqlik tomchilarini rab olib yemirib yuboradi. Binobarin, hujayra tashqi membranasining fiziologik vazifasi shu hujayraga kerakli oziq moddalarni tkazib, keraksizlarini tashqariga chiqarib, ycmirib, hujayra butunligini va hayot faoliyatini la'minlab turishdan iborat.

Membrananing tashqi va ichkariga sib chiqqan simtalari ham b ladi. Ular ana shu simtalari hosil qilgan qatlamlari bilan q shni hujayralarga bevosita birikib, zaro bo liqligi, muslahkamligini va aloqasini ta'minlab turadi. Ichkari tomonidan bir qavati b rtib chiqib, yadro qismigacha boradi va faqat sitoplazma bilan emas, balki yadro bilan ham munosabatda b ladi.

Hujayra organellalari hujayraning doimiy tarkibiy qismi b lib, muayyan tuzilishga ega va muayyan fiziologik vazifani bajaruvchi qismi organella deyiladi. Organellalar umumiy va maxsus organellalarga b linadi. Umumiy

prganellarga: mitoxondriy, sigoplazmatik (endoplazmatik) l r, ribosoma, golji inajmuyi, lizosoma, mikronaycha, sentrosoma, peroksisoma va plastidalar kirsa, iiuxsus organellalarga tonofibriolarlar, miofibriolarlar, neyrofibriolarlar, Kiprikchalar, mikrovorsinkalar kiradi.

Sitoplazmatik (endoplazmatik) t r hujayra sitoplazmasida joylashgan kanalchalar tizimi, vakuolalar va sisternalardan iborat murakkab tuzilma b lib, ••ilopiazmatik membrana bilan qoplangan. Sitoplazmatik t r hayvon va simliklar hujayrasi, shuningdek bir hujayrali sodda organizmlarda b lib, liixum hujayrasi biian yadrosi b Imag'an eritrotsitlarda uchramaydi. Siioplazmatik t r donador (granular) va donasiz (agranular) b ladi. Donadorlarining membranasida mayda donador shaklda ribosomalar b ladi. Donasizlarida esa ribosomalar b lmaydi. Donador sitoplazmatik t r hujayrada oqsil va fermentlarni sintez qilishda ishtirok etsa, donasizlari lipidlar va polisaxaridlar sintezini ta'minlaydi. Sitoplazmatik t rning murakkab tuzilishini laqat eiektron mikroskopda r ganish mumkin. Hujayraning fiziologik hoiatiga bo liq ravishda siloplazmatik t r elementlari t q va och rangda b lishi mumkin.

rni kelganda shuni ham aytish kerakki, sitoplazmatik t r juda Ufsirchan va zgaruvchan organella b lib, har xil ta'sir natijasida vakulalari shishib, naychaiari parchaianib ketishi mumkin. Ularning bunday struktura 'zgarishlari ayrim kasalliklarda aniq-ravshan kuzatiladi va ularga tashxis q yishdajudaq I keladi.

Ribosomalar entoplazmik t r tizimiga kiruvchi, shakli yumaloq, diametri 150-350 'A ga teng tuzilma b lib, ularni faqat elektron mikroskopda k rish mumkin. Hujayralarda, odatda, ikki xil ribosomalar b lib, uiarning k p qismi donador endoplazmatik t r membranalarida, qolgani esa erkin holda sitoplazmada yoki mitoxondriy, yohud xloroplast matriksida joylashgan boidi. Ribosomalar yadro qobi ining tashqi membranasida ham uchraydi. Ribosomalarning 40 % RNK dan, 60 % oqsillardan tashkii topgan. Ribosomalarning asosiy vazifasi oqsillar sintezida ishtirok etishdan iborat. Donador endoplazmatik t rda joylashgan ribosomaiardagi sintezjarayoni odatdajadalroq kechadi.

Lizosomalar organelilar qatoriga kiradi. Ularning vazifasi - hujayralarda ovqat xazm qilish hamda fagositoz jarayoniarida ishtirok etishdan iborat. Sitoplazmadagi lizosomalarning atrofi bir konturli membrana bilan ralgan, diametri 0,2-0,8 mkm keladigan yumaloq shaklda b ladi. Matrikis bilan membrana tarkibida 20 dan ortiq gidrolitik fermentiar (kislotali fosfataza, nukleazalar, katepsin, kollogenez, glukozidaza va boshqalar) borligi aniqdangan. Ularning qobi i buzilganida fermentlari siteplazmaga chiqib ketadi. Lizosomalar amfibiyalar, qushlar, sut emizuvchilar va boshqa hayvonlar hamda odamda topiigan. Ayniqsa, ular fagositoz qilish xususiyatiga ega b lgan hujayralarda yaxshi k rinadi. Hujayralardagi ikki xil - birlamchi va ikkilamchi lizosomalar Golji majmuyi atrofida joylashgan b lib, tarkibidagi fermentlar

sust faoliyat kechiradi. Plazmatik membranadan hosil b Igan endositoz pufakchalar (fagosomalar)ning birlamchi lizosomalar bilan birikishi natijasida ularning fermentlik faoliyati kuchayadi va ikkilamchi lizosomalar (getrofagosomalar), ya'ni hazm vakuolalari hosil b ladi. Oziq moddalarning hazm b iishi jadallahadi.

Mikronaychalar uzunligi 2,5 mkm, diametri 20-30 nm. ga teng shoxlanmagan, ichi b sh naychalar b Iib, asosan oqsillardan tarkib topgan xivchinlar hamda kiprikchaldardan iborat. Sitoplazmada joylashgan sentrola hamda bazal naychalar ham shu mikronaychalardan tashkil topgan. Ular odatda tayanch hamda shaklni belgilash vazifasini bajaradi. Aksariyat hayvonlar hujayrasidan olingen mikronaychalaming kimyoviy tuzilishi deyarli **bir** xij b lib, asosan ziga xos tubulin oqsilidan tarkib topgan.

Golji majmuyi (Golji apparati, plastinkasimon majmua) ni birinchi b Iib 1898 yilda italiyalik olim KamiUo topgan. Uni fanda Golji apparati, plastinkasimon majmua, t rsimon apparat, t rsimon majmua deb atash rasm b Igan. Ular hayvon hujayralarida, asosan yadro atrofida joylashgan. Ularning hujayralarida roq va tayoqcha shaklida uchraydi. Qanday t qima hujayralarida uchramasin, ularning elektron mikroskopik tuzilishi deyarli bir xil, ya'ni asosan yassi shakldagi sistemalar tizimi, naychalar hamda diametri 20 nm. dan 60 nm. gacha b ladigan mayda va yirik pufakchaldardan tashkil topgan. Ulaming ustki qalinligi 7-10 nm keladigan sitoplazmatik membrana bilan ralgan. Hujayraning vazifasi zgarishiga qarab, u kattalashib yoki kichiklashib turadi. Golji majmuyi bez hujayralarida yaxshi organilgan. Masalan, bez hujayralarining sekreti kattaligi har xil pufakcha shaklida Golji majmuyi atrofida topilgan. Oqsillar dastavval endoplazmatik t rdan Golji majmuyiga tadi. Ularda murakkab oqsillar (lipoproteidlar, mukoproteidlar, mukopolisaxaridlar) hosil b ladi. Tayyor b Igan murakkab oqsillar pufakchalarga yi iiib, s ng sisternalardan sekret holda ajralib chiqadi. Pufakchalar asosan mikronaychalar orqali harakat qiladi. simliklarning hujayrasida Golji majmuasi tarkibidagi gemiselluloza hujayra qobi ida pektin moddasini sintezlaydi. Shilimshiq moddalardagi polisaxaridlarni sintezlashda va chiqarib berishda ham ishtirok etadi. Golji majmuyi granulotsitlar bilan semiz hujayralardagi maxsus granulalarning hosil b Iishida ham ishtirok etadi.

